

Toshkent shahri

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil

"Orient Finans" XATB, bundan keyingi o'rinlarda "Bank" deb ataladigan va uning nomidan ishlovchi, 20 \_\_\_\_ yilda berilgan, \_\_\_\_-sonli ishonchnomaga asoslanib harakat qiladigan \_\_\_\_\_ AB/Filiali Boshlig'i/Boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ bir tomondan va \_\_\_\_\_ ga asoslanib harakat qiladigan, bundan keyingi o'rinlarda "Mijoz" deb ataladigan \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan quyidagilar haqida shartnoma tuzishdi:

**1. Atama va tushunchalar**

- 1.1 Bank — "ORIENT FINANS" XATB.
- 1.2 Mijoz — Shartnoma tuzgan yuridik shaxs.
- 1.3 Shartnoma — Bank va Mijoz imzolaydigan, bank plastik kartasi bilan bajariladigan operatsiyalarda ko'rsatiladigan Mijoz to'g'risidagi shaxsiy ma'lumot yoziladigan, KKH ochishning alohida shartlari ko'rsatiladigan KKH ochish, xalqaro korporativ plastik karta chiqarish va unga xizmat qilish haqidagi ushbu shartnoma va uning ilovalari.
- 1.4 Karta (xalqaro korporativ plastik karta) — vakillik (administrativ) xarajatlarini, shuningdek, Karta egasini chet davlatga xizmat safari bilan yuborish xarajatlarini chet davlat valyutasida naqd pulsiz to'lashga ishlatiladigan hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi nazarda tutadigan boshqa operatsiyalarni bajarishda qo'llanadigan vosita.
- 1.5 Karta egasi — Mijoz bilan emitent bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan Mijoz kartadan foydalanishga vakolat bergan shaxs. Biroq yuridik shaxs Kartaga egalik qilish vakolatini faqat to'liq moddiy javobgarlik haqida shartnoma tuzgan xodimiga topshirishi mumkin;
- 1.6 PIN kod — Shaxsni tanitiradigan raqam, elektron vositalar bilan operatsiya o'tkazganda Karta egasini tanitish uchun ishlatiladigan 4 talik raqamli yashirin kod.
- 1.7 To'lov tizimi — MasterCard International xalqaro to'lov tizimi.
- 1.8 Qoidalar — Kartadan foydalanish qoidalari. Qoidalar ushbu SHartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi (2-ilova).
- 1.9 Protssing tizimi — Protssing markazining Karta ishlatiladigan operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan dasturiy texnika majmui, operatsiyalarning hisobini olib boradi, Bank Kartasi ishlatiladigan shartlarni belgilaydi va To'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi hisoblashlarni bajaradi.
- 1.10 Korporativ karta hisobraqami (KKH) — Bank ochadigan va Karta egasi /egalari Kartani yoki uning rekvizitlarini ishlatib bajaradigan operatsiyalarni ko'rsatadigan bank hisobraqami.
- 1.11 Tomonlar — Bank, Mijoz.
- 1.12 Tariflar — Bankning vakolatli organi tasdiqlaydigan va Bank Kartalar bo'yicha bajaradigan xizmatlariga oladigan, to'lovlar to'lanadigan kuni amal qiladigan Tariflar.
- 1.13 Texnik (ruxsat berilmagan, ijazatsiz bajarilgan) overdraft — Karta orqali bajariladigan operatsiyalar va shu operatsiyalar bo'yicha hisoblashlar natijasida yuzaga keladigan KKHda turishi kerak bo'lgan pul mablag'i musbat qoldig'idan oshadigan Mijoz KKHdagi debet saldosi. Texnik overdraft ruxsat etilmagan to'lovlar, chet el valyutasida almashirish kursidagi farq, komissiya to'lovi to'lash va boshqa operatsiyalar natijasida paydo bo'ladi.
- 1.14 Yashirin so'z — Korporativ karta hisobraqami (KKH) va Karta ochishga berilgan Arizada ko'rsatilgan, Bosh Bankka/filialga telefon qilganda Mijozni tanish imkonini beradigan raqamli va/yoki xarfi kod.

**2. SHartnomaning mazmuni**

- 2.1 Ushbu Shartnoma MasterCard kartasini chiqarish shartlarini belgilab beradi hamda Bank AQSH dollarida chiqargan MasterCard kartasi ishlatilib hisob-kitoblar bajarilganda, Bank, kerak bo'ladigan xizmatlarni taklif etishi uchun Bank bilan Mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

**3. Umumiy shartlar**

- 3.1 Bankda chet el valyutasida talab qilib olguncha depozit hisobi bo'lgan Mijozgagina KKH ochiladi va Karta chiqariladi.
- 3.2 KKH ochish va Karta chiqarish uchun Mijoz Bankka KKH ochish va Karta chiqarish so'ralgan hamda namunada ko'rsatilgan tartibda to'ldirilgan ariza topshiradi (1-ilova). Mijoz Karta olish uchun Bankka ariza bergan, KKHga pul o'tkazgan va Bank Tarifiga muvofiq Karta chiqarish uchun komissiya haqini to'lagan kundan boshlab 5 ish kunida Bank Karta chiqaradi.
- 3.3 Karta Bankning mulki hisoblanadi va Karta amal qiladigan davrda vaqtincha foydalanish uchun Mijozga beriladi. Karta muddati unda ko'rsatilgan yildagi oying oxirigacha amal qiladi. Karta amal qiladigan muddati tugaganda, almashtirilganda yoki Bank talab qilganda Bankka qaytariladi.
- 3.4 Ushbu Shartnomaga ko'ra chiqariladigan Karta quyidagi operatsiyalarga ishlatilishi mumkin: chet davlatda chet el valyutasida vakillik xarajatlarini, Karta egasini xizmat safari bilan chet elga jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni naqd pulsiz to'lashga, Karta egasini xizmat safari bilan chet elga jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni uchun chet el valyutasida chet elda naqd pul olishga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa operatsiyalarni bajarishga;
- 3.5 KKHdagi pul O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sarflanishini nazorat qilish Mijozga yuklanadi (kundalik limit, xizmat safari xarajatlarini to'lash va hk.)
- 3.6 Karta chiqargani, KKHga xizmat qilgani, MasterCard korporativ plastik kartasini ishlatib bajargan operatsiyalarini ishlovdan o'tkazgani uchun xizmat bajarilgan vaqtdagi Bank Tariflariga muvofiq Mijoz Bankka komissiya haqi to'laydi.
- 3.7 Karta amal qiladigan muddati tugaganda, almashtirilganda yoki Bank talab qilganda Bankka qaytariladi.
- 3.8 Karta mijozning yozma arizasiga asosan yopiladi.
- 3.9 Xizmat ko'rsatadigan yoki savdo bilan shug'ullanadigan Korxonalar tovar yoki xizmat haqi to'langani uchun berilgan cheklarni topshirib tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etganidan so'nggina, Bank to'lovni qaytarish haqidagi talabni ko'rib chiqadi.
- 3.10 Mijoz yozma ariza topshirib so'ragan kundan boshlab 30 bank kuni ichida Bank o'g'irlangan yoki yo'qolgan kartani almashtirib beradi.

**4. Tomonlarning majburiyatlari****4.1 Mijozning majburiyati:**

- 4.2 Karta egasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, Markaziy Bankning to'lov kartalari bilan operatsiya bajarish tartibini belgilaydigan me'yoriy hujjatlar va Qoida (Ilova-2) talablarini bajarishi va ta'minlashini nazorat qiladi.

- 4.2.1 Mijoz, Shartnomani va Qoidani buzgani uchun paydo bo'lgan yoki Mijozning xodimi - Karta egasining aybi bilan yuzaga kelgan barcha xarajatlarni to'laydi.
- 4.2.2 Karta egasini Kartani ishlatish Qoidalari (Ilova-2) bilan tanishtiradi.
- 4.2.3 Kartani foydalanish uchun boshqa shaxslarga bermaydi, PIN kod va Karta haqidagi ma'lumotlar sir tutilishini ta'minlaydi.
- 4.2.4 Bank so'raganda Karta egasi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.
- 4.2.5 KKHda qoldiq mablag'lardan oshmagan holda operatsiya o'tkazadi. Texnik overdraft paydo bo'lganda qarz yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 14 kalendar kundan kechiktirmay qarzni to'laydi.
- 4.2.6 KKH bilan bajarilgan operatsiyalarni o'zi nazorat qilib turadi, ro'yxatga olish vositalari (elektron terminal, imprinter, bankomat va boshqa vosita) tomonidan shakllantirilgan cheklarni saqlab qo'yadi.
- 4.2.7 Karta raqami blokirovka qilunguncha qadar yoki Stop-list qo'shilguncha uchinchi shaxslar yo'qolgan karta bilan bajargan operatsiyalardan kelib chiqadigan Bank xarajatlarini to'liq to'laydi, shuningdek kartani bloklay jarayonida (Stop-listga qo'yish yuzasidan ariza topshirilgan vaqtdan boshlab Stop-list ro'yxatida ko'ringuncha qadar) vakolatsiz bajarilgan operatsiyalar bilan bog'liq Bank xarajatlarini ham qoplaydi.
- 4.2.8 Texnik overdraft paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.
- 4.2.9 Karta yo'qolsa yoki o'g'irlansa, shuningdek, PIN kod uchinchi shaxsga ma'lum bo'lsa Kartani blokirovka qilish uchun Mijoz yoki Karta egasi zudlik bilan Bankka telefon orqali xabar beradi, telefon qilganda o'zini tanitish uchun KKH va Karta ochish uchun yozgan Arizasida ko'rsatgan yashirin so'zni aytadi. Yuqoridagi voqea bo'lgandan so'ng 3 bank kuni ichida Kartani ochgan Bankka yoki Bankning yaqinroqdagi filialiga yozma ariza berib og'zaki bergan arizasini tasdiqlaydi. Agar yuqoridagi muddat ichida yozma ariza topshirib tasdiqlanmasha Bank Kartani yana blokdan chiqarishga haqli bo'ladi.
- 4.2.10 Amal qiladigan muddati o'tganda, Shartnoma bekor qilinganda, shuningdek, shikastlanganda, mexanik zarar etganda yoki yo'qoldi deb ariza berganidan so'ng topilganda Kartani Bankka qaytaradi.
- 4.2.11 Karta egasi Kartadan foydalanish Qoidalarga amal qilishini ta'minlaydi.
- 4.2.12 Kartadan noqonuniy foydalanish oldini olish bilan bog'liq Bank xarajatlarini Bank haqiqatda sarflagan miqdorda qaytaradi, shuningdek Mijoz ushbu Shartnomani buzish bilan bog'liq Bank xarajatlarini ham to'laydi.
- 4.2.13 Kartaga sotib olgan xaridini savdo do'koniga qaytarganda savdo do'konidan xarid haqini naqd pulda qaytarib berishlarini so'ramaydi. Yuqoridagi holatda qaytarish faqat naqd pulsiz, KKHga o'tkazib bajariladi.
- 4.2.14 KKHga adashib o'tkazilgan pul mablag'larini Bankka qaytaradi;
- 4.2.15 Soliq organlari bilan hisob-kitoblarni o'zi bajaradi;
- 4.2.16 Ushbu shartnoma bekor qilinishi haqida Bankdan yozma bildirish xati olgan vaqtdan boshlab, 10 kalendar kuni ichida, ushbu shartnoma doirasida chiqarilgan hamma Kartalarni Bankka qaytarib beradi.

**4.3 Bankning majburiyati:**

- 4.3.1 Shartnoma tuzilganidan so'ng 5 ish kunidan kechiktirmay Mijoz nomiga KKH ochadi va Kartadan foydalanib operatsiyalar bajarishi uchun unga Kartani topshiradi.
- 4.3.2 Mijoz Karta yo'qolgani yoki o'g'irlangan haqida ariza berganda uning nomiga ochilgan Kartani bloklay qo'yadi.
- 4.3.3 KKH hisobraqamidagi qoldiq mablag' doirasida Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar bajarilishini ta'minlaydi.
- 4.3.4 Tegishli tartibda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlarini olgan vaqtdan boshlab 3 bank kuni ichida Mijoz foydasiga kelib tushgan pulni KKHga o'tkazadi.
- 4.3.5 Bank filiallari va bo'limlarida hamda Bankning www.ofb.uz manzilidagi rasmiy internet sahifasida ma'lumotlar berib, Tariflar va Qoidalardagi o'zgarishlar haqida Mijozni xabardor qiladi.
- 4.3.6 O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Mijozning bank siri saqlanishiga kafolat beradi.
- 4.3.7 Shartnoma bekor qilingan (KKH yopilgan) taqdirda Kartadan foydalanish bilan bog'liq hisob-kitoblar tugab, Shartnomadagi barcha majburiyatlar bajarilganidan so'ng hisobraqamda qolgan pulni Mijozga qaytarib beradi. Biroq hisobda qolgan pul Karta Bankka qaytarilganda va/yoki qaytarilmagan Kartaning hisob raqami mahalliy (xalqaro) stop-list ro'yxatiga qo'shilganidan so'ng 30 kalendar kuni o'tgandan so'ng qaytariladi.

**5. Tomonlarning huquqlari****5.1 Mijoz quvidagi huquqlarga ega:**

- 5.1.1 Bankka o'zi murojaat qilganda KKHdan ko'chirma oladi (amaldagi Tarifga ko'ra xizmat haqi to'langan taqdirda).
- 5.1.2 O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomaga muvofiq KKHdagi mablag'dan erkin foydalanadi, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshiradi, KKHni naqd pulsiz to'ldirib turadi.
- 5.1.3 Ko'chirma yoki bajarilgan operatsiyalar bo'yicha biror noroziligi bo'lsa yozma e'tiroz bildiradi. Bunday hollarda yuzaga kelgan masala, operatsiya bajarilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida ko'rib chiqiladi. Shu muddat o'tganidan so'ng, Mijoz tomonidan KKHdan o'tgan operatsiyalar tasdiqlangan deb hisoblanadi.
- 5.1.4 Kartasi yo'qolsa (o'g'irlansa) yoki amal qiladigan muddati tugasa, Kartani qayta chiqarishni so'rab Bankka ariza bilan murojaat qiladi.
- 5.1.5 Bankka tegishli ariza bilan murojaat qilib, Kartaning ishlashini to'xtatib turadi (bloklay qo'yadi) yoki amal qilish muddatidan oldin to'xtatadi, yoki KKH bilan operatsiyalar bajarilishini to'xtatadi yoki Shartnomani muddatidan oldin bekor qiladi.

**5.2 Bank quvidagi huquqlarga ega:**

- 5.2.1 Mijozning ko'rsatmasiz ushbu Shartnomaga muvofiq ochilgan KKHdan quyidagi pul mablag'larini chiqim qiladi:
  - Karta (Kartalar) va/yoki uning rekvizitlari ishlatilib o'tkazilgan operatsiyalar summasini;
  - KKHga xizmat qilgani uchun olinadigan komissiya haqini (boshqa to'lovni) (shu jumladan, jarimalarni);
  - hisobraqamdagi overdraftni;
  - Mijozning Hisobraqamiga adashib o'tkazilgan pulni;

- Bank bilan Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa Shartnoma bo'yicha Mijozning Bankdan qarz bo'lsa yoki boshqa pul majburiyati bor bo'lsa, shu jumladan Texnik overdraft yuzaga kelib Mijoz Bankdan qarzdor bo'lganda.

5.2.2 Karta bilan o'tkaziladigan operatsiyalar bo'yicha cheklovlarini belgilaydi va o'zgartiradi. Istagan vaqtda, o'z ixtiyoriga ko'ra Karta bilan o'tkaziladigan xizmatlar, vazifalar va operatsiyalar bo'yicha to'plamni o'zgartiradi.

5.2.3 KKH ochish va Karta olishga Ariza berganidan so'ng Mijoz 6 (olti) kalendar oydan ko'p vaqt Bankka kelib Kartasini olmagan taqdirda, Kartani bekor qiladi va unga xizmat qilish uchun to'langan komission to'lovni Mijozga qaytarib bermaydi.

5.2.4 Bank Tarif va Kartadan foydalanish bo'yicha Qoidalarni bir tomonlama o'zgartirishi mumkin, bunda, o'zgarish kuchga kirishidan 10 kun oldin Bank bo'linmalarining ma'lumot taxtasida e'lon berish va/yoki Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) elektron manzildagi Internet sahifasida chop etish yo'li bilan Mijozni xabardor qiladi.

5.2.5 Mijozning Shartnoma doirasida operatsiyalar o'tkazishi uning Tarif va SHartnoma shartlari o'zgarishiga rozi ekanini bildiradi.

5.2.6 Mijoz Shartnoma va Qoidalardagi majburiyatini bajarmaganda, shuningdek, Bank Kartadan noqonuniy operatsiya o'tkazishga ishlatilganini bilib qolganda (yoki shunday operatsiya o'tkazildi, deb shubha qilganda) qalloblik maqsadida ishlatilishining oldini olish uchun yoki Mijoz noto'g'ri ma'lumot bergani ma'lum bo'lganda, Shartnoma amal qilishini yoki Mijoz Kartadan foydalanishini to'xtatib turadi yoki bekor qiladi.

5.2.7 Nazorat qilish maqsadida o'tkazilgan operatsiyalarga bog'liq hujjatlarini so'rab oladi.

5.2.8 Mijoz bergan rekvizitlarga SMS xabar jo'natadi.

#### **6. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**

6.1 Mijoz KKHsi AQSH dollarida (USD) yuritiladi.

6.2 KKH O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, naqd pulsiz shaklda to'ldiriladi.

6.3 Mijoz Bankda ochilgan 23102840 \_\_\_\_\_ hisobiga KKHga kirim qiladigan pul mablag'larini o'tkazadi.

6.4 Mijoz komissiya haqini Bank Tariflariga muvofiq, alohida to'lov topshiriqnomasi bilan o'tkazadi.

6.5 Mijoz o'tkazayotgan operatsiya valyutasi operatsiya o'tayotgan kundagi yoki tranzaksiya moliyaviy tasdiqlangan kundagi MasterCard xalqaro to'lov tizimida belgilangan kurs bilan KKH valyutasiga konvertatsiya qilinadi.

6.6 Bank xizmat haqi Bank belgilagan Tarifga muvofiq KKH valyutasida olinadi.

6.7 Agar Tarif qoidalarda boshqacha aytilmagan bo'lsa Hisobraqamda kundalik qoladigan qoldiq pul mablag'iga foiz hisoblanmaydi.

#### **7. Tomonlarning javobgarligi.**

7.1 Shartnoma shartlarini buzganligi uchun Tomonlar qonunchilik va SHartnomaga muvofiq javob berishadi.

7.2 Mijoz Bankka noto'g'ri ma'lumot topshirgani uchun javobdir.

7.3 Mijoz Karta egasi o'tkazgan operatsiyalarning asosli bo'lishiga hamda Karta egasi bilib yoki bilmasdan, ehtiyotsizlik qilib, Kartadan foydalanish Qoidalari buzgan holda Karta va/yoki undagi ma'lumotni noqonuniy ishlatganining oqibati uchun javob beradi.

7.4 Mijoz Karta va PIN kodni ishonchli saqlanishi uchun javobgardir.

Bank kartasi bilan PIN ishlatib o'tkazilgan operatsiyalar Mijoz o'tkazgan operatsiyalar deb hisoblanadi va e'tiroz qilinmaydi.

7.5 Tomonlar engib bo'lmaydigan kuch natijasida, ya'ni Shartnoma tuzilganidan so'ng yuzaga kelgan favqulodda va qaytarib bo'lmaydigan vaziyat sababli, Shartnomadagi majburiyatlarini bajarmaganligi uchun qisman yoki to'liq javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday vaziyatlarga ushbu Shartnoma nazarda tutadigan majburiyatni bajarish imkonini bermaydigan harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar, ish tashlashlar, davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qarorlari kiradi. Bunday vaziyat sodir bo'lgani tegishli vakolatli organ bergan guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Ushbu Shartnomadagi majburiyatlarini bajarishga imkon bermaydigan vaziyatga tushib qolganda Bank yoki Mijoz uch kunlik muddat ichida boshqa tomonni engib bo'lmaydigan kuch ta'sir qiladigan vaziyatga tushib qolgan va/yoki u tugagan haqida xabardor qiladi.

7.6 Bank Mijozning KKHga qo'ygan mablag'i saqlanishi uchun javob beradi va ushbu SHartnoma, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va To'lov tizimi qoidalarga muvofiq bu mablag' Mijozga qaytarilishiga kafolat beradi.

7.7 Mijoz unga berilgan Kartadan foydalanib uchinchi shaxslardan oladigan xizmat yoki uning sifati uchun Bank javob bermaydi.

7.8 Aloqa kanallarini yashirin eshitish yoki ishlatilayotgan vaqtda aloqani tutib olish natijasida KKH va/yoki Mijoz haqidagi yoki u o'tkazgan operatsiyalar to'g'risidagi yoki Mijoz ma'lumotni saqlash va undan foydalanish shartlariga amal qilmagani uchun sir tutiladigan ma'lumot uchinchi shaxslarga oshkor bo'lgan taqdirda Bank javob bermaydi.

7.9 Internet tarmog'i, pochta, aloqa tarmoqlari Bankka bog'liq bo'lmagan sabab tufayli ishlamagani uchun Mijoz Bank jo'natgan xabarlarini vaqtda olmagan yoki umuman olmagan uchun Bank javobgar hisoblanmaydi. Texnik nosozliklar (elektr ta'minotining va aloqa tarmoqlarining uzib qo'yilishi/shikastlanishi, Bank dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazasining ishlamay qolishi va hk.) sababli SHartnomadagi majburiyatini bajarmagani yoki to'liq bajarmagani uchun Bank mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

#### **8. Kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi**

8.1 Tomonlar ushbu Shartnoma bajarilishi borasida paydo bo'ladigan barcha kelishmovchiliklarni imkon boricha muzokara o'tkazib hal etishga harakat qilishadi.

8.2 Muzokaralar yo'li bilan xal etilmagan kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi sudida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi belgilangan tartibda hal qilinadi.

8.3 Kelishmovchiliklar hal qilinayotganda tomonlar operatsiyalar haqidagi elektron ma'lumot saqlagichlardagi ma'lumotni dalil sifatida qabul qilishga rozilik berishadi.

#### **9. Shartnoma amal qiladigan muddat, uni bekor qilish va o'zgartirish shartlari**

9.1 Ushbu Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlarning biri uni bekor qilguncha amal qiladi.

9.2 Mijoz Bankka yozma murojaat qilgan holda, ushbu Shartnoma doirasida Mijoz uchun chiqarilgan barcha Kartalarni topshirib va olinishi kerak bo'lgan komissiya haqini to'lab ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli bo'ladi.

9.3 Bank Shartnoma bekor qilinishidan kamida 30 kalendar kun oldin Mijozga yozma murojaat jo'natib Mijoz bilan tuzilgan Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli bo'ladi.

9.4 Ushbu Shartnomaga qo'shiladigan barcha o'zgarish va qo'shimchalar yozma rasmiylashtirib, tomonlarning imzosi qo'yilganidan keyingina haqiqiy hisoblanadi. Ushbu SHartnomaga qo'shiladigan barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar uning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

#### **10. Shartnomaning boshqa shartlari**

10.1 Shartnomaga qo'shilgan ilovalarning hammasi uning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

10.2 Shartnomada nazarda tutilmagan hollar yuzaga kelganda tomonlar To'lov tizimi qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq harakat qilishadi.

10.3 Joylashgan manzili, bank rekvizitlari o'zgarganda tomonlar zudlik bilan yozma ravishda bir-birini xabardor qilishi shart.

10.4 Shartnoma bir xil qonuniy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va tomonlarning har biriga bir nusxadan topshirildi.

#### **11. Tomonlarning rekviziti va manzili:**

**Bank:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

M.O'.

**Mijoz:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

M.O'.

## KKH ochish va xalqaro korporativ plastik karta chiqarishga ariza

Quyidagi shartlar bilan mening nomimga KKH ochishingizni va plastik karta chiqarishingizni so'rayman:

Mijozning F.I.O. (lotin yozuvidagi katta xarflar bilan yoziladi)

Familiyasi:

Ismi:

Mijozning F.I.O. (kirill yozuvidagi katta xarflar bilan yoziladi)

Familiyasi:

Ismi:

Otasining ismi:

Fuqaroligi:  O'zbekiston Respublikasi  Boshqa davlat \_\_\_\_\_

Tug'ilgan joyi: \_\_\_\_\_ (davlat, shahar)

SHaxsini tasdiqlaydigan hujjat:  Pasport  Boshqa hujjat \_\_\_\_\_

Seriyasi:  Raqami:

Hujjatni bergan organ: \_\_\_\_\_

Berilgan sana:  Amal qiladigan muddat:

Ro'yxatga olingan manzili:

Indeks  \_\_\_\_\_ viloyati \_\_\_\_\_ shahri

\_\_\_\_\_ ko'cha \_\_\_ uy  \_\_\_\_\_ xonadon:

Doim yashaydigan manzili:  Ro'yxatga olingan manzili bilan bir xil.

Indeks  \_\_\_\_\_ viloyati \_\_\_\_\_ shahri

\_\_\_\_\_ ko'cha \_\_\_ uy  \_\_\_\_\_ xonadon:

Telefon raqami:

Uyiniki: +998

Mobil telefoni: +998            SMS-bank xizmati ulanadi

Elektron pochta manzili: \_\_\_\_\_ @ \_\_\_\_\_

Ishi haqidagi ma'lumot:

YOllanma ishchi. Tashkilot nomi: \_\_\_\_\_

Lavozimi: \_\_\_\_\_

Karta turi:   **Master Card Business**

Telefonda o'zini tanishtirish uchun aytadigan yashirin

so'zi:

Ko'rsatilgan ma'lumot to'g'ri ekanini tasdiqlayman va uni tekshirishlari va foydalanishlariga qarshi emasman. Xizmat ko'rsatish shartlari, Bank Tariflari va Kartadan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqdim va ularga rioya etish majburiyatini olaman.

Karta egasining imzosi

Tashkilot nomi \_\_\_\_\_

Rahbarning F.I.O. \_\_\_\_\_

(rahbarning imzosi)

Bosh hisobchining F.I.O. \_\_\_\_\_

M.O'.

(bosh hisobchining imzosi)

### Bank haqidagi ma'lumot (Bank xodimi to'ldiradi)

xodimning F.I.O.: \_\_\_\_\_

Bank kodi

KKH raqami: 22620 840

Ochilgan sana: \_\_\_\_/\_\_\_\_/20\_\_\_\_ yil.

Karta raqami:       \*\* \*\*\*\*     Xodimning imzosi \_\_\_\_\_

### Plastik karta Mijozga berilgani haqidagi yozuv

Ushbu bilan plastik karta va muhrlangan xat jildiga solingan PIN olganimni tasdiqlayman. Kartadagi shaxsiy ma'lumot to'g'ri ko'rsatilgan. PIN kod aniq bosilgan

Berilgan sana: \_\_\_\_\_/20\_\_\_\_ yil

Mijozning imzosi

**KKH ochish haqidagi hamda xalqaro korporativ plastik karta chiqarish va unga xizmat qilish to'g'risidagi № \_\_\_\_\_ sonli Shartnomaga 2-ilo va**

**KARTADAN FOYDALANISH QOIDALARI**

**Umumiy masalalar**

Bank chiqaradigan xalqaro korporativ plastik kartalar (bundan keyingi o'rinlarda Kartalar, deyiladi) xalqaro tajribada qo'llanadigan naqd pulsiz hisoblashish vositasi sanaladi va shu turdagi kartalarga xizmat qiladigan vositalar bo'lgan hamma joyda va kunning istalgan vaqtida Mijozga bankdagi hisobidan foydalanish imkonini beradi.

Karta To'lov tizimi bilan bog'langan do'konlarda, restoranlarda, transport va boshqa kompaniyalarda tovarlar va xizmat haqini to'lash imkonini beradi.

Olingan arizaga muvofiq Kartani (KKHni) ishlatib hisoblashishi uchun Bank Mijoz nomiga hisobraqam ochadi.

**Karta va uning qismlari.**

*Old tomoni*

1. **ChIP** Ba'zi kartalar ichiga chip joylashgan bo'ladi. Ba'zi do'konlarda xarid haqi chipli karta bilan to'langanini tasdiqlash uchun PIN kodni kiritish kerak bo'ladi.
2. **KARTA RAQAMI.** 16 ta sonli alohida raqam, kartangizni tanitirish (identifikator) uchun ishlatiladi.
3. **KARTA EGASINING NOMI.** Karta egasi Siz ekaningizga kafolat beradi. Karta bilan to'laganingizda shaxsingizni tasdiqlaydigan hujjat so'rashlari mumkin.
4. **KARTA AMAL QILADIGAN MUDDAT.** Karta amal qiladigan muddat oy/yil formatida ko'rsatilgan (karta ko'rsatilgan o'ning oxirgi kunigacha amal qiladi). Amal qiladigan muddati tugaganidan so'ng Bank yangi raqam bilan yangi karta chiqaradi.



*Orqa tomoni*

1. **MAGNITLI TASMA** Magnitli tasmada hisobraqamingizga kiradigan kalit raqam yashiringan bo'ladi.
2. **IMZO QO'YILADIGAN SATR** Kartaning alohida ajratilgan satriga imzo qo'ying — shunda kartangiz qo'shimcha himoya qilinadi.
3. **HIMOYA.** Himoya qiladigan gologramma karta haqiqiy ekanini tasdiqlaydi.
4. **CVC (CVV).** Imzo qo'yiladigan satrning o'ng tomonidagi uchta sonli kod. Bu kod internetda xarid qilishga ishlatiladi.
5. **BANK BILAN BOG'LANISH.** Bankning manzili va u bilan bog'lanish mumkin bo'lgan telefon raqami.



**Kartani to'ldirish**

KKHga qo'yiladigan pul AQSh dollarida, naqd pulsiz, Mijozning hisob raqamidan olib o'tkazilishi mumkin.

**Kartani olish**

Bank Karta egasining qo'liga Karta bilan faqat Karta egasi biladigan yashirin shaxsiy PIN kod solingan PIN konvertni topshiradi. PIN kod bankomatdan naqd pul olganda va ehtimol Kartani elektron va kassa terminallarida ishlatganda Karta egasini tanitish uchun zarur bo'ladi. Kartani olayotganda Karta egasi PIN konvert ishonchli muhrlanganini va ochilmaganini tekshirib ko'radi. PIN konvert ochilgandan keyin Karta egasi PIN kodini eslab qolishi va uni sir saqlashi kerak. PIN kodni Kartaga yozib qo'yishni, uni Karta bilan bir joyga qo'yishni yoki boshqa insonlar ko'rishi mumkin bo'lgan joyda saqlashni maslahat bermaymiz.

Bankdan Kartani olayotganda unda familiyangiz bilan ismingiz to'g'ri yozilganini albatta tekshirib ko'ring. Familiyangiz bilan ismingiz noto'g'ri yozilganini ko'rsangiz Bank xodimiga ayting. Kartani olishingiz bilanoq uning orqasidagi alohida ajratilgan joyga dumaloq uchli ruchka bilan imzoingizni qo'ying.

**Kartani ishlatish**

Kartani faqat uning Egasi—ismi bilan familiyasi Kartaga yozilgan inson ishlatishi mumkin.

Karta egasi bo'lmagan shaxs uni ishlatishi ta'qiqlanadi. Karta egasi Kartani ishlatish uchun uchinchi shaxsga bersa yoki Kartaning egasi uning rekvizitlarini uchinchi shaxsga aytasa va Karta yoki uning rekvizitlari ishlatilib o'tkazilgan operatsiyalar bilan bog'liq barcha xarajat, biror-bir shartsiz, Mijoz KKHsidan olingan xarajat deb hisoblanadi.

PIN kod yodlab olinadi yoki agar buning iloji bo'lmasa Kartadan alohida, ko'rinmaydigan, uchinchi shaxslar, shu jumladan, qarindoshlar ham ololmaydigan joyga olib qo'yiladi.

Kartani yoki uning rekvizitlarini hech qachon va hech bir vaziyatda ishlatish uchun uchinchi shaxslarga bermang.

Bank kartasini yo'qotmang (shu jumladan, tushirib qo'yimgan/o'g'irlatmang).

Kartani olayotganda uning orqasidagi Karta egasi qo'l qo'yadigan joyga imzoingizni qo'ying. Shunday qilsangiz bank kartasi yo'qolsa, uni Sizning rozilingiz ishlatish xavfi kamayadi.

Kartani saqlash va ishlatish shartlariga qat'iy amal qiling. Kartani issiq keladigan joyda qoldirmang, unga elektromagnit to'lqin ta'sir ettirmang, suv tekkizmang. Kartani mobil telefon, maishiy va ofis texnikasi yaqinida saqlash mumkin emas.

Interaktiv ovozi javob tizimidan (IVR) yoki SMS xabar bilan shaxsiy ma'lumot yoki Karta haqidagi axborot so'ralganda, (raqami, amal qiladigan muddati, PIN kod, xavfsizlik kodi) so'ralgan savollarga javob bermang.

Bank nomidan o'zingiz haqingizdagi shaxsiy ma'lumot so'ralgan savollarga javob bermaslikni maslahat beramiz. Xatlarda ko'rsatilgan "ishoralar(ssылkam)"ga kirmang, sababi ular boshqa o'xshash saytlarga olib borishi mumkin. Bank bilan gaplashish yoki ishlash uchun faqat Bankning o'zi bergan hujjatlarda ko'rsatilgan bog'lanish rekvizitlaridan foydalaning (mobil va stasionar telefon, faks, WEB sahifalar, oddiy va elektron pochta va hk.).

SKSdan pul chiqim qilganda quyidagilarni esingizdan chiqarmang:

Operasiya valyutasi (Karta egasi o'tkazayotgan operasiya valyutasi) KKHdagi valyuta (AQSh dollari) bilan bir xil bo'lsa KKHda operasiya summasi ko'rinadi.

Karta egasi hisoblashiladigan valyutadan boshqa valyutada operasiya o'tkazgan bo'lsa Xalqaro to'lov tizimi, Xalqaro to'lov tizimining kursiga muvofiq operasiya summasini hisoblashiladigan valyuta kursiga o'tkazib qayta hisoblaydi va so'ng Xalqaro to'lov tizimi shu summani to'lash uchun Bankka jo'natadi.

Karta egasa bunday vaqtda yuzaga keladigan operasiya summasidagi farq ustidan shikoyat qilolmaydi.

Karta ishlatib o'tkaziladigan operasiyalar summasi KKHda qolgan pul miqdoridan oshib ketmasligi kerak.

Tovar/ish/xizmat haqini to'laganda yoki naqd pul beriladigan nuqtalarda naqd pul olganda Karta egasi Karta aksi (slip) tushgan hujjatga yoki elektron terminal chekiga qo'l qo'yishi kerak, lekin qo'l qo'yishdan oldin slipda (yoki chekda) va uning barcha nusxalarida Karta raqami, sana va Karta ishlatilgan valyuta operasiyasining summasi to'g'ri ko'rsatilganini tekshirib ko'radi. Karta egasining Karta bilan o'tkazilgan operasiya summasi ko'rsatilmagan slipga (chekka) imzo qo'yishga haqqi bo'lmaydi. Sotuvchi (kassir) Karta egasidan shaxsini tasdiqlaydigan hujjat talab qilishi va/yoki PIN kodni kiritishni so'rashi mumkin.

Bank kartasi bilan to'lov o'tkazilayotganda operasiya "muvaffaqiyatsiz" bo'lganda, keyinchalik bank hisobraqamiidan olinadigan ko'chirmada shu operasiya yo'qligini tekshirish uchun terminal chekinging bir nusxasi saqlab qo'yiladi.

Biror masalada kelishmovchilik chiqib qolsa hal qilish uchun Karta orqali o'tkazilgan operasiyalarga tegishli hamma hujjatlarni bir yilgacha saqlab qo'yishni tavsiya qilamiz. SHunday qilinsa to'lov (operasiya) rad etilganda to'lov (operasiya) ustidan shikoyat qilish osonroq va tezroq bo'ladi.

Bank Karta orqali amalga oshiriladigan to'lovlar summasini quyidagicha cheklab qo'yishi mumkin:

- naqd pul olinadigan operasiyalar umumiy miqdorini;
- naqd pulsiz to'lovlar umumiy miqdorini;
- naqd pul olinadigan operasiyalar sonini;
- naqd pulsiz to'lov o'tkaziladigan operasiyalar sonini;
- Karta orqali amalga oshiriladigan boshqa to'lovlar maksimal sonini yoki summasini;
- xizmat ko'rsatish hududlarni.

Agar shu turdagi kartaga xizmat qilish shartlariga to'g'ri kelsa KKH egasining yozma arizasiga asosan belgilangan cheklovlar o'zgartirilishi mumkin.

#### *Tovar va xizmat haqini Karta bilan naqd pulsiz to'lashga tegishli tavsiyalar*

- Ishonarsiz savdo va xizmat tashkilotlarida Kartani ishlatmang.
- Karta bilan operasiyani Sizning oldingizda bajarishlarini talab qiling. Sababi, kartada ko'rsatilgan Siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy olish xavfini kamaytirish uchun ham shunday qilish zarur.
- Tovar yoki xizmat haqi Karta bilan to'langanda kassir bank kartasi egasidan pasportini ko'rsatishni, chekka qo'l qo'yishni yoki PIN kodni kiritishni so'rashi mumkin. PIN kodni atrofingizda turgan insonlarga ko'rsatmay tering. Chekka qo'l qo'yishdan oldin albatta chekdagi summa to'g'riligini tekshirib ko'ring.
- Karta bilan to'lov o'tkazilayotganda operasiya "muvaffaqiyatsiz" bo'lsa keyinchalik bank hisobraqamidan olinadigan ko'chirmada shu operasiya yo'qligini tekshirish uchun terminal bergan chekning bir nusxasi saqlab qo'ying.

### **Kartani blokirovka qilish**

Karta ishlatilganda PIN kod ketma-ket ikki martadan oshiq xato terilmasligi kerak. PIN kod uchinchi marta xato terilganidan so'ng Karta avtomatik yopib qo'yiladi. SHunday bo'lganda Sizga Karta bergan Bank bo'limiga borib Kartani yangidan chiqarishlarini so'rab ariza berishingiz kerak.

Karta yo'qolsa yoki o'g'irlansa, shuningdek, PIN kod uchinchi shaxsga ma'lum bo'lib qolsa Mijoz zudlik bilan Bankka xabar berib Kartasini blokirovka qilishi kerak. Xabar berganda o'zini tanitish uchun Bank xodimiga yashirin so'z aytiladi. SHundan so'ng, 3 kun ichida Mijoz Karta ochgan filialga yozma ariza topshirib, og'zaki bergan arizasini tasdiqlashi shart. Agar yuqoridagi muddat ichida yozma ariza topshirib holat tasdiqlanmasa, Bank Kartani yana blokdan chiqarishga (ochib qo'yishga) haqli bo'ladi.

Karta egasi Karta yo'qolgani haqida Bankka vaqtida xabar bermaganda, Karta noqonuniy ishlatilgani uchun javobgarlik Karta egasining zimmasiga tushadi.

Yo'qolgan (o'g'irlangan) deb ariza berilgan Karta topilgan taqdirda, Bankka zudlik bilan xabar beriladi, bunday Kartadan foydalanish ta'qiqlanadi.

### **Kartaning amal qilish muddati va uni qaytadan chiqarish tartibi**

Karta, shu turdagi karta Tarifda yozilgan muddatga beriladi va Kartaning yuz tomonida ko'rsatilgan yildagi oyning oxirgi kunigacha amal qiladi.

Amal qiladigan muddati tugaganidan so'ng Karta yangi raqam va yangi muddat bilan qaytadan chiqariladi, lekin KKH raqami o'zgar olmaydi.

Esingizdan chiqarmang, Karta Bankning mulki hisoblanadi va Karta egasiga vaqtincha ishlatish uchun berilgan bo'ladi, shuning uchun, amal qiladigan muddati tugaganidan so'ng yoki SHartnoma bekor qilinganidan keyin albatta Bankka qaytarilishi kerak.

### **SMS xizmati**

SMS xizmatni ulatish uchun Sizga bank kartasini bergan filialga murojaat qilishingiz kerak. Qisqa xabar (SMS) olish va jo'natish imkoniyati ega bo'lgan mobil operatorning abonentlari SMS xizmatidan foydalanishlari mumkin.

O'zingizni qiziqtirgan ma'lumotni olish uchun **1071 qisqa raqamiga SMS** ko'rinishida so'rov jo'natishingiz kerak. So'rov faqat lotin harflarida yoziladi. Harf katta yoki kichik bo'lishining ahamiyati yo'q (HELP = Help = help). Mobil telefon raqamingiz o'zgargan taqdirda Bankka murojaat qilib, SMS xizmatini yangi mobil telefon raqamiga ulashlarini so'raysiz.

**Xizmat ulanganidan so'ng quyidagi imkoniyatlardan foydalanishingiz mumkin:**

1. **O'tkazilgan operasiyalar haqida xabar olasiz.**  
Quyidagilar bo'yicha avtomatik xabar olasiz:
  - To'lov o'tganda yoki naqd pul olganda kartadagi pul echilgani haqidagi xabar;
  - Operasiya bekor qilinganda pulingiz hisobraqamga qaytgan haqidagi xabar;
  - Hisobdagi pul to'ldirilganda yoki xarid qaytarilganda pul hisobraqamga kelib tushgani haqidagi xabar.
2. **SMS xizmatdan foydalanish haqidagi ma'lumot.**  
Qanday buyruqlardan foydalanish mumkinligini bilish uchun SMS orqali **HELP** yozuvini jo'nating  
Alohida bitta buyruq qanday ishlatilishini bilish uchun **HELP <buyruq nomi>**ni yozib yuboring (masalan, HELP BALI)
3. **SMS xizmat tilini tanlash**  
Quyidagi tillardan bittasini tanlash mumkin:
  - O'zbek tili - bu tilni tanlash uchun SMS xabar bilan **LANG UZ** deb yozib yuboring
  - Rus tili - bu tilni tanlash uchun SMS xabar bilan **LANG RU** deb yozib yuboring
  - Rus tili (translit) - bu tilni tanlash uchun SMS xabar bilan **LANG RUT** deb yozib yuboring
  - Ingliz tili - bu tilni tanlash uchun SMS xabar bilan **LANG EN** deb yozib yuboring.

4. **Karta egasi nomidagi kartalar ro'yxatini so'rash.**  
Ishlatishingiz mumkin bo'lgan kartalar ro'yxatini olish uchun SMS xabar orqali **CLIST** so'zini jo'nating. SMS xizmat har bitta kartaga alohida ulanadi. Qo'shimcha kartalar haqida so'rov berganda kartangizning tartib raqamini ko'rsatishingiz kerak.
5. **Karta hisobidagi balansni so'rash.**  
Asosiy kartadagi balansni (hisobingizda ishlatish mumkin bo'lgan pul mablag'ini) bilish uchun SMS xabar bilan **BALI** deb yozib yuboring.
6. **Karta bilan o'tkazilgan operatsiyalarni bilish uchun so'rov jo'natish.**  
Asosiy kartangiz bilan bo'lgan operatsiyalar (oxirgi operatsiyalar ro'yxatini) ko'chirmasini olish uchun SMS xabar bilan **MSTI** deb yozib yuboring.
7. **Kartani vaqtincha bloklab qo'yish (yopib qo'yish).**  
Asosiy kartangizni vaqtincha bloklab (yopib) qo'yish (mijozning to'xtatish ro'yxatiga (stop-sписok) qo'shib qo'yish) uchun SMS xabar orqali **USL** deb yozib yuboring. SHu buyruq olinganidan keyin karta bloklab (yopib) qo'yiladi va u orqali to'lovlar to'lashga yoki naqd pul olishga ishlatib bo'lmaydi. Kartani to'xtatish ro'yxatidan chiqarish va uni yana to'lovlar uchun ishlatish imkoniyati bo'lishi uchun SMS xabar bilan **USL 1 ACTIVATE** deb yozib yuboring.

Agar SMS xizmatga ulangan qo'shimcha kartalaringiz bo'lsa, ular haqida ma'lumot olish uchun so'rovda qo'shimcha kartaning tartib raqamini ham ko'rsating (masalan, BALI 2 yoki MSTI 2).

**Biror savolingiz bo'lsa, Sizga plastik karta bergan Bank bo'limiga yoki (+998 71) 200-88-99 raqamiga telefon qilib, "Orient Finans" XATB ma'lumot markaziga murojaat qilishingiz mumkin. Xizmatlarimiz haqidagi yangiliklar va qo'shimcha ma'lumotlar [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) manzilidagi Internet sahifamizda beriladi.**

<b>SHaxontohur filiali</b> Navoiy ko'chasi, 33 +998(71) 244 54 41	<b>YUnusobod filiali</b> A. Temur ko'chasi, 95a +998(71) 140 77 79	<b>Yakkasaroy filiali</b> Kichik Xalqa yo'li ko'chasi, 87g +998(71) 140 91 11	<b>CHilonzor filiali</b> CHilanzor-3, 55/1 +998(71) 277 -42-08
<b>Markaziy amaliyot filiali</b> Kichik Beshyog'och ko'chasi, 50 +998(71) 205-00-66	<b>Bosh Bankdagi Amaliyot boshqarmasi</b> Osiyo ko'cha, 5 +998(71) 140 70 00		<b>Samarqand filiali</b> Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 48 +998(66) 230-80-00